

INKLUZIV TA'LIMGA BOLALARNI JALB QILISH TARTIBI

Robiya Raxmatullo-qizi Abdukarimova

robiyaabdukrimova05@gmail.com

Ilmiy rahbar: Muniraxon Sadirdinovna Voxobova

muniravaxobova408@gmail.com

Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan inkluziv ta'lim jarayoniga bolalarni jalb qilish tartibi, me'yoriy-huquqiy asoslari va pedagogik-psixologik tamoyillari tahlil qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablariga integratsiya qilishning bosqichlari va bu jarayondagi muammolarning yechimlari bo'yicha takliflar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: inkluziv ta'lim, integratsiya, korreksion pedagogika, alohida ta'lim ehtiyojlari, adaptatsiya, pedagogik-psixologik tashxis, korreksiya, rehabilitatsiya

Bugungi kunda jahon ta'lim hamjamiyatida “hamma uchun ta'lim” g'oyasi markaziy o'rinni egallamoqda. Inkluziv ta'lim - bu shunchaki imkoniyati cheklangan bolalarning oddiy maktabga borishi emas, balki, alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'limdir.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni va tegishli farmonlari bilan inkluziv ta'lim tizimi qonuniy mustahkamlandi. Bolalarni ushbu jarayonga jalb qilish ma'lum bosqichli va tizimli yondashuvni talab etadi.

O'quvchilarni inkluziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi. Tartibga ko'ra, tuman yoki shahar xalq ta'limi bo'limlari huzuridagi komissiyalar bolaning rivojlanish darajasini o'rganib, uning umumta'lim maktabida o'qishi bo'yicha tavsiya beradi. O'quvchilarni inkluziv sinflar va boshlang'ich korreksion sinflarga qabul qilish o'quv yili boshlanishidan oldin yoki o'quv yili davomida, direktor buyrug'i asosida amalga oshiriladi. Inkluziv ta'lim sinflarida o'quvchilar soni 30 tadan, alohida ta'lim ehtiyojli bolalar soni esa 3 tadan oshmasligi kerak. O'quvchi ixtisoslashtirilgan maktab internatida ta'lim olayotgan bo'lsa ham ota-onasi yoki vasiy shaxs tomonidan inkluziv ta'limda o'qitish huquqiga ega hisoblanadi. Ota-onalar farzandini maktab-internatdan maktabga o'tkazish uchun uning sabablarini ko'rsatgan holda xalq ta'limi boshqarmasiga ariza bilan murojaat qiladi. Ariza psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning ijobiy xulosasi olingach, xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan shu kunning o'zida o'qishni davom ettirish uchun tanlangan maktabga taqdim etish uchun o'quvchini maktabga o'tkazish to'g'risida yo'llanma beriladi. Yo'llanma berilganligi haqida o'quvchi ta'lim olayotgan maktab-internatga xat orqali ma'lum qilinadi. O'quvchi ta'lim olayotgan maktab-internat direktori xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan yuborilgan xatni olgach, shu kunning o'zida o'quvchini maktab-internat o'quvchilari safidan chiqarish to'g'risida buyruq qabul qiladi. Maktab inkluziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflardagi o'quvchilar uchun mashg'ulotlar, dam olish, jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish hamda korreksion-rivojlantiruvchi ishlar olib borilishiga mo'ljallangan sharoitlarni ta'minlaydi

Xususan, yo‘laklarda panduslar bo‘lishi, keng eshik va yo‘laklar, lift, maxsus ko‘tarish vositalari aravachalar, maxsus o‘quv adabiyotlari, yozuvlarni kattalashtiruvchi, ovozni kuchaytirib beruvchi moslamalar, eshitish apparatlari, maxsus parta va stullar, didaktik materiallar, rehabilitatsion va korreksion vositalar bo‘lishi nazarda tutiladi. Dars xonalari, koridor, xojatxonalar inkluziv ta‘lim o‘quvchilari uchun moslashtiriladi.

Sinf rahbari va fan o‘qituvchilari universal ta‘lim dasturi asosida barcha bolalarga tushunarli va oson tushuntirishlari lozim.

Bolani jamoaga jalb qilishda sinf rahbari va maktab psixologining o‘rni beqiyos. Jalb qilish tartibining eng nozik nuqtasi - bu sog‘lom bolalar va ularning ota-onalari o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borishdir. Inkluziya muvaffaqiyati jamiyatning tolerantlik darajasiga bog‘liq. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qaroriga 2-ilovada maktab direktori bolalar inkluziv ta‘lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishi uchun belgilangan tartibda shaxsan javob berishi, o‘quvchilarning maktabga kelib-ketishidagi hayoti va sog‘lig‘i uchun javobgarlik ularning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar zimmasiga yuklatilishi, o‘quvchilarning maktab hududidagi hayoti va sog‘lig‘i uchun javobgarlik maktabga yuklanishi, maktablar inkluziv ta‘lim sohasida o‘quvchilarning ota-onalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa ta‘lim tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan uzviy aloqada faoliyat ko‘rsatishi belgilab qo‘yilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar va xalqaro tajriba (masalan, Finlyandiya yoki Estoniya tajribasi) shuni ko‘rsatadiki, inkluziv sinflarda o‘qigan sog‘lom bolalarda ham emotsional intellekt va mas‘uliyat hissi yuqori bo‘ladi. Inkluziv ta‘limga jalb qilish tartibi soddalashtirilishi, biroq monitoring jarayoni kuchaytirilishi lozim. Hozirgi kunda pedagog kadrlarning maxsus metodika (Brayl alifbosi, imo-ishora tili yoki autizm bilan ishlash) bo‘yicha malakasini oshirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inkluziv ta‘lim - bu shunchaki ta‘lim shakli emas, balki jamiyatning insonparvarlik va tenglik tamoyillari asosida rivojlanishining muhim ko‘rsatkichidir. Har bir bolaning imkoniyatidan qat‘i nazar, tengdoshlari bilan bir safda ta‘lim olishi ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. To‘siqsiz muhitni yaratish, pedagoglar malakasini oshirish va jamoatchilik ongida inkluziv madaniyatni yuksaltirish orqali biz barcha bolalar uchun porloq kelajakni ta‘minlay olamiz. Zero, inkluzivlikni qo‘llab-quvvatlash - har bir insonning qadr-qimmatini e‘zozlanadigan adolatli jamiyat barpo etish sari tashlangan eng muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta‘lim to‘g‘risida"gi Qonuni, 2020-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori.
3. Vygotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya".
4. Xalqaro YuNESKO deklaratsiyalari (Salamanka deklaratsiyasi).
5. BOTIROVA, S. (2025). NUTQ MADANIYATI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING UYG‘UNLIGI: TARIX FANI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. «ACTA NUUZ», 1(1.2), 82-84.
6. Botirova, S. Developing Speech Skills Of School Students In Teaching History Of Uzbekistan. European Scholar Journal, 4(12), 62-64.
7. Sadirdinova, V. M., & Orifjanovna, O. D. (2025, December). AUTIZM SINDROMLI BOLALARDA NUTQ VA MULOQOT KO‘NIKMAVARLIGINI SHAKLLANTIRISHNING KORREKSION-PEDAGOGIK TIZIMI. In UNIVERSAL INSIGHTS CONFERENCE ON SCIENCE AND SOCIETY (Vol. 1, No. 1, pp. 198-206).

8. Azamovna, R. G., & Munira, V. (2022). Case Stade and TECHNOLOGY of Using Non-standard Tests in the Development of Educational and Creative Activities. *JournalNX*, 8(12), 277-282.
9. Turg‘unpo‘latova, D., & Voxobova, M. (2025). Inklyuziv ta’limda logopedik yordamning o‘rni. *Science and Education*, 6(5), 350-355.
10. Munira, V. (2025). Alaliya nutq nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan turli metodlar. *Science and Education*, 6(2), 283-288.
11. Munira, V. (2025). ALALIA IMPROVISATIONAL METHODS OF PREPARATION FOR WORK ON SPEECH IMPAIRMENT. In *International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (pp. 93-97).
12. Vaxobova, M. (2024). O'smirlarning ota-onalari bilan munosabatlaridagi muammolar. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4, 53-57.
13. Munira, V., & Shoxistaxon, T. (2024). Bolalar nutqining rivojlanishida atrof muhit va oilaning ahamiyati. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(1), 51-69.